



**O'ZBEK XALQI MA'NAVIY -
AXLOQIY MEROSIDA
HARBIY VATANPARVARLIK
G'OYALARI VA UNING
TALQINI.**



**USMANOV
ABDUMO'MIN
XOLMO'MIN O'G'LI**

*O'zMU 2-kurs magistranti.
abdumomin.usmanov@mail.ru*

ISBN: 978-1-957653-12-9

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7797920>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida harbiy xizmatchilarning axloqiy qoidalariga rioya qilishi, harbiy vatanparvarlik g'oyalari va uning talqini, harbiy xizmatchilarning ona Vatanga muhabbati va harbiy qasamyodga sodiqligi to'g'risida fikrlar aks ettirilgan.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, mardlik, jangovar o'rtoqlik, axloqiy ong, axloqiy amaliyot, axloqiy munosabatlar.*

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 million 500 mingdan ortiq yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa — 18 million nafarni yoki 64 foizini tashkil etadi. Aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishga intilish davlatimiz siyosatining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Yoshlarning hali-beri yechilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, ularni hayotimizda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasida mamlakatimizda juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarning asl mazmun-mohiyati kunday ravshan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi siyosatida yoshlarni siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga jalb qilish, ularning islohotlardagi faol ishtirokini ta'minlash orqali ularning demokratik yangilanish jarayonlarining ishtirokchisi sifatidagi roli yanada ortdi. Bu quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangi asrga kelib, yoshlarga munosabat masalasida dunyo taraqqiyoti uchun umumiy bo'lgan qonuniyatning mavjudligi ayon bo'ldi, ya'ni, yoshlar endi nisbatan ustuvor ahamiyatga ega shaxsdan jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan, uni amalga oshiradigan yetakchi kuchga aylanmoqda;

- yoshlarning intellektual qobiliyatlari, kasbiy malakasi, ma'nan va ruhan barkamollik kabi ijtimoiy sifatlari butun jamiyatning rivojlanish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday tendensiyalar yoshlarning alohida ijtimoiy demografik qatlam sifatida siyosatning faol sub'ektiga aylanib borayotganini ko'rsatadi. Bugun yoshlarning jamiyat hayotidagi o'рни va mavqeini yanada yuksaltirish o'ta muhim masaladir.

Demokratik jamiyatda inson birinchi darajali masala ekanligi e'tiborga olinib, Konstitutsiyada inson xuquqlari, erkinliklari va burchlari masalasiga alohida ahamiyat beriladi. Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasi barcha fuqorolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi hamda ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida teng ekanligiga alohida urg'u beriladi. Bu o'rinda "Inson huquqlari to'g'risida"gi xalqaro huquqiy hujjatlardagi me'yorlarni o'zida mujassamlashtirgan. Harbiy xizmatchilar axloqi — vatanparvarlik, mardlik, eng zamonaviy jang qurollari va vositalarini bilish, har qanday sharoitda qo'llay olish, jangovar o'rtoqlik qoidalariga sodiq bo'lib, jang maydonlarini tashlab ketmaslik, Harbiy qasamyodga sodiq qolib, harbiy burchni hayotining so'nggi daqiqalariga qadar bajarish kabi xususiyati bilan ajralib turadi.

Harbiy xizmatchilarning axloqiy qoidalari Harbiy qasamyod va Umumharbiy nizomlarda o'z ifodasini topgan. Harbiy xizmatchilar axloqining jamiyat rivojida tutgan o'rni mazkur mamlakat aholisining tinch-totuv yashashlari uchun har tomonlama sharoit yaratib berish, ya'ni ularni tashqi xavf-xatar — dushman tajovuzidan himoya qilish bilan belgilanadi.

Shu munosabat bilan hozirgi davrda o'sib kelayotgan avlodning muammolarini o'rganish, tahlil qilish va shu asosda ularning yechimini topish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Umuman olganda, yoshlarga doir siyosat yo'nalishi bir qancha rivojlangan davlatlarda XX asrning 60-70-yillarida mustaqil soha sifatida shakllandi. Biroq 1985-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Samarali yoshlar siyosatini shakllantirishning asosiy qoidalari to'g'risida" rezolyutsiya qabul qilinganidan so'ng bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. har bir mamlakatda o'ziga xos, davlat qurilishi va boshqaruv tizimiga mos ravishda yoshlar siyosatini yuritishning turli mexanizmlari va tizimlari qaror topa boshladi.

Mustaqillik davlat siyosatining harakteri, maqsad va vazifalariga bevosita ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos milliy yoshlar siyosatini belgilab olish va amalga oshirish uchun mustahkam zamin tug'diradi. Shu nuqtai-nazardan yondashganda, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi davlatning yoshlarga doir siyosatida muhim bosqich hisoblanib, siyosatda yoshlar muammosiga alohida ahamiyat qaratish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi Yoshlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeining tobora ortib borishi mamlakatimiz uchun xos xususiyatdir. Bugun mustaqillik tufayli yangicha dunyoqarash, demokratik tafakkurga ega bo'lgan yoshlarning yangi avlodi shakllanmoqda. Ular respublikamiz kelajagining mustahkam tayanchi bo'la olishi shubhasizdir. Zero, yoshlarning huquqlari va faoliyat kafolatlari bosh qomusimizda belgilab qo'yilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarga taalluqli me'yorlardan tashqari, aynan yoshlarga tegishli bo'lgan qoidalar ham mavjud.

Jumladan,

41-moddada: "har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir";

45-moddada: "Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir";

64-moddada: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar";

66-moddada: "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar";

117-moddada: “O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar” kabi me‘yorlar belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, O‘zbekistonda, eng avvalo, mustaqillikka erishgan sobiq SSSR respublikalari ichida birinchilardan bo‘lib, 1991 yilning 20 noyabrida “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinganini alohida qayd etib o‘tish joiz. Ushbu huquqiy hujjat bosh islohotchi bo‘lgan davlatning yoshlar masalasiga doir strategik yo‘nalishlarini izchil va tizimli ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘llarini begilab berdi. Ushbu qonunda quyidagilar ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yildi:

- Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni tashkiliy-moddiy jihatdan ta‘minlash;

- Yoshlarga doir qonunchilikda va hukumat tomonidan belgilangan chora-tadbirlarni yangilanish va islohotlar jarayoniga mos ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirish;

- Yoshlar siyosatini yurituvchi nodavlat tuzilmalari tarmog‘ini kengaytirish va takomillashtirish, ularning yoshlar tarbiyasidagi faoliyatini kuchaytirish;

- Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda yoshlarning faol ishtirokini ta‘minlash:

- O‘zbekistonning buyuk kelajagini qurish yo‘lida yoshlarning ijodiy imkoniyatlarini to‘laroq namoyon etishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- Yoshlar muammolarini hal etishga ularning o‘zlarini ko‘proq jalb etish, ularda tashkilotchilik va tashabbuskorlik ko‘nikmalarini shakllantirish;

- Yoshlarni siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

Ushbu qonunga ko‘ra, davlat yoshlar siyosatini amalga oshirar ekan, avvalo, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma‘lumoti va siyosiy e‘tiqodidan qat‘iy nazar, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, milliy-madaniy an‘analarning avloddan-avlodga o‘tishi, avlodlarning ma‘naviy aloqalarini ta‘minlash, yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o‘z manfaatlarini amalga oshirish yo‘llarini erkin tanlab olishlarini kafolatlash, jamiyat va yoshlar hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishini ta‘minlashni o‘ziga vazifa qilib olishi belgilab qo‘yilgan.

Jamiyatni tubdan isloh etish sharoitida yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash davlat institutlari faoliyatining ustuvor yo‘nalashlaridan biri hisoblanadi.

Vatan - bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to‘kilgan muqaddas dargohdir. Vatan - bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlar, qadriyatlar, chinakamiga shakllanib, o‘tib, kamol topib boradigan zamindir. “Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya‘ni bizning vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan allomalar, fozilu-fuzalolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan.

Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari ana shu zaminda yaratilgan”. Darhaqiqat, vatan deganda, hamisha o‘zimiz tug‘ilib o‘sgan, ko‘z ochib ko‘rgan, ta‘lim-tarbiya olib voyaga yetgan, necha-necha avlodu-ajdodlarimiz yashab o‘tgan, ularning aql-idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko‘z oldimizga keladi. Vatan ona kabi aziz va mukarramdur. Vatan insonga baxt-iqbol beradigan zamindir.

Har bir g'oya va mafkura asosida Vatan yotadi. Vatan – har bir o'zligini anglagan, avlod va ajdodlarini qadrlagan kishining eng muqaddas joyidir. Inson o'zining ma'naviy kamolotini yuksaltirish uchun yuksak mas'uliyatni his etishi, o'z manfaatlarini Vatan va xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashi asosida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Vatanparvarlik kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan muhabbatini, munosabatini ifoda etadigan ma'naviy axloqiy fazilatdir. Vatanparvarlik insonda tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit va davrlar ta'sirida shakllanib: "Ma'naviyat, mafkura borasida chetdan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirib, biron natijaga erishib bo'lmaydi. Chunki, bizning dunyoqarashimiz, xalqimizning tafakkuri, turmush-tarzi nihoyatda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Barpo etayotgan davlatimiz kelajagimiz ildizi teran tariximizga, betakror madaniyatimizga, yuksak maqsadlarimizga monand bo'lishi lozim".

Vatanparvarlik tuyg'usi xalqning o'z tarixini chuqur bilishi va undan g'ururlanishida, buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy merosni ko'z qorachig'idek asrab, kelgusi avlodlarga yetkazishda, ajdodlar urf-odat, rasm-rusum va udumlarni, meroslarni o'rganib, uning qadriyatiga aylangan qismini davom ettirishda, ayniqsa, davlatimiz kelajagi, istiqlolining barqarorligi, kelajagining buyukligini chin dildan his etish, shunday kelajakni barpo etishga astoydil ko'maklashish kabi yuzlab fazilatlarda o'z aksini topadi.

Zero, barcha zamonlarda har qanday millatning taqdiri uning kelajagi bo'lgan yoshlar tarbiyasi bilan belgilanadi. Inson, jamiyat hayotida tarbiyaning o'rni qanchalik muhimligiga jadid mutafakkirlari ham e'tibor qaratishgan. Xususan, Abdulla Avloniy "Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir", deganda tarbiyaning nafaqat alohida shaxs, balki jamiyat taraqqiyotida ham naqadar katta rol o'ynashini ta'kidlagan edi.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat organlari, jamoa tashkilotlari va birlashmalarining yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashidagi maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Bundan asosiy maqsad — yoshlar ongida fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy qadriyatlarni va konstitutsion burchlariga nisbatan sadoqat hissini shakllantirishdir.

"O'zbekiston fuqarosining vatanparvarligi —bu qayta o'zgarish yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlagan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli kompasdir. O'zbekistonga, uning yeriga, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'alarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan fahrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi". Shu nuqtai-nazardan qaraganda, vatanimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, uning tarixini, xalqning boy merosini milliy va umuminsoniy qadriyatlarning tub mohiyatini, respublikamiz imkoniyatlarini chuqur anglagan holda, yuksak istiqbolga erishish yo'ldia fidoyilik namunalari ko'rsatmagan kishi haqiqiy vatanparvar bo'lmaydi. Tarixiy madaniy meros insonda vatanparvarlik, milliy tuyg'usini uyg'otadi. Ajdodlarga munosib avlod bo'lishga intilish hissini paydo qiladi. Tarixiy tafakkur orqali idrok qilingan madaniy meros o'zida katta ma'naviy qudratni, boylikni, iste'dodni namoyon qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimiz o'z oldiga ezgu maqsadlarni qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan zamonda yashamoqda. Bugungi kunda o'zbek xalqi o'z taqdirimizni o'zimiz belgilab, azaliy qadriyatlarimizga tayanib, rivojlangan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, istiqbolli, olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, barcha imkoniyatlarimiz va bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olganligi - aynan, mustaqillikning sharofati ekanligini anglayapmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 82 b.
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: Fan, 2001.
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston. 2000. – 471 b.
4. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: Adolat, 1992. – 44-b.
5. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –Toshkent: O'zbekiston, 1992. - 76 b.
6. Xasanov N.X. Harbiy xizmatning axloqiy asoslari va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida axloqiy tarbiya / Н. X. Хасанов. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 24 (314). — С. 552-554.